



ISLOM BANKLARI MOLIVAVIY HISOBOTLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

PhD, dots. **Batirova Nilufar Sherkulovna**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

ORCID: 0000-0001-7542-0825

n.batirova@iiau.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom banklari moliyaviy xisobotlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Moliyaviy xisobotlarning shakllari birma bir an'anaviy buxgalteriya va islom buxgalteriya qoidalari bo'yicha tahlil qilingan. Jumladan, korxonaning moliyaviy holatini aks ettiruvchi balansning tarkibiy qismidagi o'zgarishlar yoritib berilgan. Islom buxgalteriyasida an'anaviy buxgalteriyaga qo'shimcha tarzda 3 ta hisobot shaklining qo'shilish sabablari birma bir bayon etilgan. Shuningdek, maqolada cheklangan investisiyalardagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot namunasi keltirilgan. Maqola so'nggida islom banklarining foyda va zararlarining taqsimot yo'nalishlari bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Moliyaviy hisobot, aktiv, passiv, majburiyat, daromad, xarajat, kapital, o'zgarish, investitsiya, mulkdorlik, taqsimlanmagan foyda, dividend.

ОСОБЕННОСТИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ ИСЛАМСКИХ БАНКОВ

PhD, доц. **Батирова Нилуфар Шеркуловна**

Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. В данной статье освещаются специфические особенности финансовой отчетности исламских банков. Формы финансовой отчетности анализируются по отдельности в соответствии с правилами традиционного и исламского учета. В частности, освещаются изменения в составе баланса, отражающего финансовое положение предприятия. Поочередно объясняются причины добавления 3 дополнительных форм отчетности к традиционному учету в исламском учете. В статье также приводится пример отчета об изменениях в ограниченных инвестициях. В конце статьи даются выводы о направлениях распределения прибылей и убытков исламских банков.

Ключевые слова: финансовая отчетность, активы, обязательства, обязательства, доход, расходы, капитал, изменения, инвестиции, собственность, нераспределенная прибыль, дивиденды.

FEATURES OF FINANCIAL REPORTING OF ISLAMIC BANKS

PhD, assoc. prof. **Batirova Nilufar Sherkulovna**
International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. This article highlights the specific features of Islamic banks' financial reporting. Financial statement forms are analyzed separately in accordance with the rules of conventional and Islamic accounting. Specifically, it highlights changes in the composition of the balance sheet, which reflects the financial position of an enterprise. The reasons for adding three additional financial statement forms to conventional accounting in Islamic accounting are explained in turn. The article also provides an example of a statement of changes in restricted investments. Finally, the article concludes with conclusions regarding the distribution of profits and losses in Islamic banks.

Keywords: financial statements, assets, liabilities, obligations, income, expenses, equity, changes, investments, property, retained earnings, dividends.

Kirish.

Buxgalteriya hisobi tushunchalari va tamoyillari islom hisobi tizimining asosini tashkil qiladi. Islom buxgalteriya hisobi an'anaviy buxgalteriya hisobini ko'plab buxgalteriya tamoyillarini birlashtiradi. Biroq, islomiy hisobda bu tamoyillar Islom iqtisodiyoti qoidalariga ham mos kelishi zarur hisoblanadi. Islomdagi ijtimoiy javobgarlik tamoyili tadbirkorlarni o'z faoliyatida inson manfaatlarini va foydasi uchun faoliyatni amalga oshirishga undaydi. Bu bir tarafdin shaffoflikning qat'iy shakli bo'lgan to'liq yoritish tamoyilini nazarda tutadi. Bunday sharoitda biznes etikasi to'g'ri va adolat tamoyillariga asoslangan bo'lishi kerak. Kompaniya va banklar faoliyati va holati to'g'risida oshkor qilingan ma'lumotlar to'g'ri, to'liq, ishonchli va xolis bo'lishi va manfaatdor tomonlarga nisbatan adolatli munosabatni aks ettirishi kerak.

Har bir bank va tashkilotning faoliyati uning buxgalteriyasida aks etadi. Buxgalteriya balansini buxgalteriya hisobining muhim hisobotlaridan biri hisoblanadi. Buxgalteriya balansining eng asosiy vazifalaridan biri xususiy kapital va majburiyatning yig'indisi aktivga tengligini ta'minlash hisoblanadi. Buxgalteriya balansining aktiv qismida xo'jalik mablag'larini xarakati, iqtisodiy mohiyatiga ko'ra turlari aks ettiriladi, passiv qismida esa aktiv qismda aks ettirilgan xo'jalik mablag'larini tashkil topish manbalari ko'rsatiladi (Bank, 2006). Buxgalteriya balansini tarkibi korxona faoliyatini tahlil qilish maqsadida kerakli bo'lgan turli ko'effitsientlarni hisoblash imkonini beradi. Jumladan, joriy likvidlik, test kislotasi, aktivlarning daromadlilik, debitorlik va kreditorlik qarzlarni aylanishi, tovar moddiy zahiralarni aylanishi, fondlar qaytimi, qarzdorlik, aktivlar rentabelligi kabi ko'rsatkichlarni hisoblashda foydalaniladi. Demak, buxgalteriya balansini va boshqa moliyaviy hisobotlar banklarning to'lovga qodirligi imkoniyatlarini o'rganadi.

Adabiyotlar sharhi.

Islom moliya muassasalarida an'anaviy buxgalteriyada ko'zda tutilmagan moliyaviy instrumentlardan, masalan, mudoraba, mushoraka, istisno', salam kabi instrumentlardan foydalaniladi. Bu esa islom moliyaviy muassasalarining balansida an'anaviy buxgalteriya balansidan farqli ravishda qo'shimcha bo'limning yuzaga kelishiga olib keladi. Islom moliya muassasalarida moliyaviy hisob balansining elementlari nafaqat aktivlar, majburiyatlar va o'z mablag'larini, balki passiv qismda o'z mablag'lari va majburiyatlardan mustaqil bo'lgan qo'shimcha mablag'lar manbai sifatida cheklanmagan investitsiya hisoblarini ham o'z ichiga oladi. Bu muassasa va investitsion hisob egalari o'rtasida mavjud bo'lgan shartnoma munosabatlarining tabiati bilan bog'liq hisoblanadi.

N.Sultana tomonidan (Sultana, 2015) islom buxgalteriya hisobi tizimi barcha tashkilotlar uchun muvaffaqiyatli va tasdiqlangan buxgalteriya hisobi tizimi sifatida baholanadi. Shu sabab

ham, uning hisobotlari korxona faoliyati haqida to'liqroq ma'lumot beradi deb hisoblaydi. Yana bir qarashga ko'ra, an'anaviy buxgalteriya hisobidagi balans hisoboti islom qadriyatlariga mos kelmasligi, uning barcha instrumentlarini aks ettirish imkonini bermaydi (Velayuthum, 2015). Moharrampor fikriga ko'ra esa, Islom moliyaviy muassasalarini balansi 2 ta asosiy talabga, oshkoralik va to'g'ri o'lchov mezonlariga javob bermog'i lozim. O'chov mezonni zakotni hisoblashda, oshkorlik mezonni esa ijtimoiy mas'uliyat sohasida islom iqtisodiyoti qoidalariga amal qilinishini ta'minlaydi (Moharrampour, 2014).

Bizning fikrimizcha, balans tuzishning maqsadi muassasaning sof aktivlarini yoki sof qiymatini tan olish va uning aksiyadorlari sifatida investorlarning qoldiq kapitalga bo'lgan egaligini ifodalashdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishi davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi. Bir qancha mavzuga doir milliy va xorijiy adabiyotlarda mavzuga doir tadqiqotlar o'rganildi va tahlil etildi. Mavzuga doir bugungi kundagi tendensiya baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Moliyaviy hisobot xalqaro hisobot standartlari va tegishli moliya organlarining talablariga muvofiq tuziladi. Shunga qo'shimcha tarzda, AAOIFI standartlariga ko'ra, Islom moliya muassasalari uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda ba'zi bir qo'shimcha ma'lumotlarni yoritish, qo'shimcha hisobotlarni tuzish talab etiladi (Xarisova, 2018). Har qanday tijorat tashkiloti uchun moliyaviy hisobotning maqsadi qaror qabul qilishni osonlashtirish, shuningdek, to'g'ri boshqaruvni ta'minlash uchun foydalanuvchilarning keng doirasiga tashkilotning moliyaviy holati va faoliyati to'g'risida ma'lumot berishdir.

Hisobot beruvchi tashkilotning moliyaviy hisoboti tarkibi quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1. Balans-moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot.
2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.
3. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot.
4. Mulkdorlarning kapitali to'g'risidagi hisobot.

5. Shuningdek, moliyaviy hisobotning ajralmas qismi bo'lgan moliyaviy hisob siyosati bo'yicha qo'shimcha yoritishlar.

Islom moliya muassasalarida esa qo'shimcha tarzda bularga islom buxgalteriyasiga xos bo'lgan hisobot shakllari qo'shiladi (Mohammed, 2019):

6. Qarzi-Hasan va xayriya jamg'armasidagi mablag'larning manbalari va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobot.

7. Cheklangan investitsiyalardagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot.

8. Zakot jamg'armasidagi mablag'larning manbalari va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobot.

Buxgalteriya balansida korxona aktivdan turli cheklovlarsiz foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan aktiv ko'rsatiladi. Agar egalik huquqi faqat mulkni nazorat qilish va undan foydalanish bilan cheklansa (ijara kabi) aktivga balansdan tashqari obyekt sifatida qaraladi va balansdan tashqari schyotda hisobga olinadi. An'anaviy iqtisodiyotda shu mezon, faqat, operativ ijaraga nisbatan qo'llaniladi. Moliyaviy ijaraga berilgan aktiv esa balansdan chiqib ketadi. Islom buxgalteriyasida har qanday ijaraga berilgan aktiv (keyin sotish sharti bo'lsa ham) balansda aks ettirilib qoladi (Kureshi, 2014). Ushbu mezon aktivni tan olishda islom moliya muassasalarini boshqa tashkilotlardan sezilarli darajada ajratib turadi. Balansda aktivni tan olishda aktivning narxini belgilashda islom iqtisodiyoti talabi bo'lgan g'arar (noaniqlik)dan qochish, va aktiv hisobot tuzilgan tashkilotga tegishli holda u uchinchi shaxs bilan bog'liq bo'lmasligi kerak. Islom moliya instrumentlari islom banklari aktivida quyidagicha aks etadi.

1-jadval

Balansda aktivlarning tasniflanishi

Aktiv	An'anaviy buxgalteriya	Islom buxgalteriyasida avvalgi ustunga qo'shimcha tarzda
Qisqa muddatli aktiv	Naqd pul	Mudoraba moliyalash
	Debitorlik qarzi	
	Tovar moddiy zahiralar	Salam
	Kelgusi davr xarajatlari	Mushoraka moliyalash
Uzoq muddatli aktiv	Asosiy vosita	Murobaha
		Ijara muntahia bittamlilik
	Nomoddiy aktiv	Ijara
	Debitorlik qarzi	

Islom buxgalteriyasida majburiyatning aks ettirilishida ham aktivlar kabi islom moliyaviy instrumentlaridan foydalanish nuqtai nazaridan farqlanadi. Korxona balansida odatiy majburiyatlar bilan bir qatorda salam to'lovlari, istisno qarzlari, e'lon qilingan, ammo taqsimlanmagan foyda, to'lanishi kerak bo'lgan zakot va boshqa hisobvaraqlar qayd etiladi (Noor, 2024). Har xil turdagi shartnomalar bilan bog'liq operatsiyalar alohida taqdim qilinadi.

2-jadval

Islom moliya muassasalaridagi balansning passiv qismini tasniflanishi

Passiv	An'anaviy buxgalteriya	Passiv	Islom buxgalteriyasi
O'z kapitali	Xususiy kapital	O'z kapitali	Xususiy kapital
	Rezerv kapitali		Rezerv kapitali
	Taqsimlanmagan foyda		Taqsimlanmagan foyda
Majburiyat	Uzoq muddatli majburiyat	Majburiyat	Uzoq muddatli majburiyat (Vadia, Qarzi hasana)
	Qisqa muddatli majburiyat		Qisqa muddatli majburiyat (Parallel salam, Parallel istino')
-----	-----	Cheklanmagan investitsiya hisob egalarining kapitali	Cheklanmagan investitsiya hisob egalarining kapitali
-----	-----	Xayriya tashkilotiga tegishli bo'lgan kapital	Xayriya tashkilotiga tegishli bo'lgan kapital

Buxgalteriya balansidagi cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari egalarining kapitali-boshqa hisobvaraqlarga yechib olingan yoki o'tkazilgan mablag'lar va foyda/zararlardagi ulushlarni chiqarib tashlagan holda olingan dastlabki mablag'lar summasini bildiradi. Cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari va ularning ekvivalentlari moliyaviy holatning elementlari sifatida qaraladi (Vatter, 1946). Ushbu hisob majburiyat hisoblanmaydi, chunki bankning dastlabki qarzlarni kafolatlash majburiyati yo'q, e'tiborsizlik isbotlangan hollar bundan mustasno, shuningdek, ular ovoz berish huquqiga yoki bankning joriy hisobvaraqlaridan foydalanish natijasida olingan foyda olish huquqiga ega bo'lmagan mulkka egalik huquqiga ega emaslar. Bank va cheklanmagan investitsiya hisobvaraqlari egalari

tomonidan birgalikda moliyalashtiriladigan aktivlar alohida qo'shimcha eslatmalarda oshkor etiladi.

Islom banklariga xos bo'lgan moliyaviy hisobotlardan yana biri bu Cheklangan investitsiyalar va ularning ekvivalentidagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotdir (Suande, 2017). Cheklangan investitsiyalar – cheklangan investitsiya hisobvaraqlari egalari tomonidan taqdim etilgan, moliyaviy muassasa kapitalida ishtirok etmaydigan, ammo moliyaviy muassasa investitsiya boshqaruvchisi sifatida Mudoraba yoki agentlik shartnomasi asosida boshqaradigan aktivlardir. Cheklangan investitsiyalar moliyaviy muassasaning aktivlari hisoblanmaydi, shu sababli bankning moliyaviy hisob balansida aks ettirilmaydi, chunki korxona va cheklangan investitsiya hisoblari va ularning ekvivalentlari egalari o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, shartnomada belgilangan shartlardan tashqari hollarda korxona ushbu investitsiyalardan foydalanish yoki ularni tasarruf etish huquqiga ega emas.

Demak, islom banklarning yillik hisobotida "Cheklangan investitsiyalar va ularning ekvivalentidagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot" balansdan tashqari hisobot sifatida tasnif etiladi.

3-jadval

Cheklangan investitsiyalardagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot namunasi

	Qimmatli qog'ozlar portfeli	Ko'chmas mulk portfeli	Qat'iy belgilangan daromad portfeli	Jami
Investitsiya (boshlang'ich)	3 000000	4 000000	3000000	10 000000
Birliklar soni	1500	1 000	1000	2500
Birliklar qiymati	2 000	4 000	3 000	-
Depozitlar/Sug'urta	1 000000	1 000000	1 000000	3 000000
Yechib olishlar/Qayta sotib olishlar	(200000)	(300000)	(500000)	(1 000000)
Investitsiya foydasi (Zarari)	1 000000	500000	700000	2200000
Ma'muriy xarajatlar	(3000)	(1 000)	(2 000)	(6 000)
Islom moliya muassasalari agentlik to'lovlari	(300000)	(200000)	(100 000)	(600 000)
Investitsiya (yakuniy)	4 500 500	5 004 000	4 102 000	13 596 500
Birliklar soni	10000	10 000	10 000	-
Birliklar qiymati	450.05	500.4	410.2	-

Mulkdorlar tomonidan qilingan investitsiyalar va mulkdorlarga foyda va zararni taqsimlash bank va uning mulkdorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liq bo'lmagan o'tkazmalar (bir tomonlama bitimlar) hisoblanadi. Bu islom moliya muassasasi va uning egalari o'rtasidagi alohida tomon sifatidagi o'zaro bog'liq va bog'liq bo'lmagan pul o'tkazmalaridan farq qiladi. Yuridik yoki boshqa zaxiralarga yoki egalarining kapital hisobvaraqlariga o'tkazilishi natijasida taqsimlanmagan foydaning kamayishi boshqa mulkdorlarning kapital hisobvaraqlariga o'tkazishni anglatadi.

Korxona o'zida zakot va xayriya jamg'armasini tashkil qilganda, bank zakot va xayriya mablag'larining to'liq yoki bir qismini yig'ish va taqsimlash uchun javobgar bo'ladi, ya'ni bank ushbu fondning ishonchli vakili sifatida ishlaydi (Oweyemi, 2020). Shu sababli, shu yo'nalishda ham hisobot tayyorlaydi. Ushbu moliyaviy hisobotning asosiy elementlari zakot va xayriya mablag'lari manbalari, zakot va xayriya jamg'armasidagi mablag'lardan ma'lum bir davrda

foydalanish va ma'lum bir sanadagi fond qoldig'ini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, investitsiya hisobvaraqlari va boshqa hisobvaraqlari egalari hamda boshqa shaxslar korxonadan bankdagi daromad foizlari bo'yicha zakot majburiyatini bajarishda agent sifatida harakat qilishlarini so'rashlari mumkin. Bank mulkdorlardan, omonatchilardan va boshqalardan ularning nomidan zakot tarqatish uchun xizmat badallarini ham olishi mumkin. Zakot va xayriya jamg'armasidagi mablag' qoldig'i deganda zakot va xayriya jamg'armasidagi ma'lum bir kungacha taqsimlanmagan mablag'lar tushuniladi. Zakot va xayriya fondini boshqaradigan korxona zakot beruvchilar va foyda oluvchilar manfaati uchun zakotni yig'ish va tarqatish agenti sifatida ishlaydi. Bank zakot to'lash huquqiga va majburiyatiga ega bo'lgan shaxslardan mablag' yig'adi va bu mablag'larni tasdiqlangan oluvchilarga taqsimlaydi.

Zakot va xayriya jamg'armalarining manbalari va ishlatilishi to'g'risidagi hisobotda zakotni hisoblash asoslari, yig'ilgan zakotning sakkizdan bir qismi banklarga inkassatsiya va to'lov agenti sifatidagi xizmatlari uchun ajratilgani yoritiladi.

Keyingi hisobot shakli, Qarzi Hasan fondidagi mablag'larning manbalari va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobot bo'lib, Qarzi Hasan - foizsiz qarz bo'lib, qarz oluvchiga muddat oxirida bir xil miqdorda qaytarish sharti bilan qarz jamg'armasidan beriladigan pul mablag'larini ifodalaydi.

Qarzi Hasan fondi ijtimoiy maqsadlarda tashkil etiladi. Qarzi Hasan jamg'armasi manbalari – hisobotda ko'rsatilgan davr mobaynida qarz berish uchun mavjud bo'lgan mablag'larning yalpi o'sishini ifodalaydi (Aderemi, 2023). Mablag'lar joriy hisobvaraqlar va mulkdorlarning o'z mablag'lari kabi tashqi manbalar, shuningdek, taqiqlangan daromadlardan tushgan tushumlar, masalan, jarimalar, shuningdek, davr mobaynida pul mablag'larini yig'ishdan yoki jismoniy shaxslar tomonidan vaqtincha yoki doimiy ravishda depozitga qo'yilgan mablag'lardan shakllantiriladi.

Mijozlarga beriladigan Qarzi Hasan mablag'lari belgilangan muddatga beriladi va qaytarib olinadi. Qarzi Hasan mablag'laridan foydalanish moliyaviy davr uchun belgilangan mablag'larning yalpi kamayishi miqdorini ifodalaydi. U yangi berilgan qarzlarni, joriy hisobvaraqlardagi mablag'larini qaytarish va taqiqlangan daromadlarni, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ilgari taqdim etilgan mablag'larni qaytarishni o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar.

Islom banklari, odatda, islom moliyasiga asoslangan quyidagi daromad olish faoliyatlarini amalga oshiradi:

- Qisqa muddatli moliyalashtirish faoliyati (Mudoraba, mushoraka, murobaha) – asosan, savdoni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

- Uzoq muddatli moliyalashtirish faoliyati (Mudoraba, mushoraka, ijara) – asosan, asosiy vositalar sotib olish, ulardan ma'lum bir faoliyatda sherikchilik asosida foydalanish kabilarga yo'naltiriladi.

An'anaviy banklarda daromad manbaidan biri bu omonat jamg'armalari hisoblanadi. An'anaviy banklarda omonatchilarga foizlar omonatni belgilangan muddatga joylashtirishda kelishilgan qat'iy yoki o'zgaruvchan foiz stavkasi asosida to'lanadi. Bu omonat summaları uchun bank tomonidan amalga oshirilgan foiz to'lovlari bankning xarajatlari sifatida aks etadi. Islom banklarida esa, bu omonatlar saqlash turish uchun yoki bank bilan sherikchilikda qandaydir faoliyatga yo'naltirish uchun qo'yiladi. Ular boshqa tarafdin investitsion xisob egalriga aylanadi. Investitsion xisob egalari va banklar o'rtasidagi foydani taqsimlashda to'lov foizli xarajatlar emas, balki dividendlar shaklida bo'ladi. Investitsiya hisobvaraqlari egalriga to'lanadigan dividendlar tashkilot hisobvaraqlarida, foydani taqsimlash siyosati, shuningdek, islom banklar tomonidan qabul qilingan foyda taqsimlash modeli asosida taqdim etiladi va yoritiladi.

Foiz xarajatlaridan farqli ravishda, foyda taqsimoti investitsiya hisobvarag'i egalari

o'rtasida kelishilgan foydani taqsimlash nisbati, shuningdek, investitsiya hisobvarag'i egalari o'rtasida taqsimlanadigan foyda bo'yicha o'zaro kelishuvni o'z ichiga oladi. Mudoraba shartnomasiga ko'ra, investitsiya hisobi egalariga to'lanadigan dividendlar aksiyadorlarga to'lanadigan dividendlar kabi direktorlar kengashining ixtiyoriga ko'ra emas, balki kelishilgan foydani taqsimlash nisbatiga asoslanadi. Shu bilan bir qatorda faoliyat zarar bilan chiqqanda, zarar taqsimoti ham amalga oshadi va bu holatlar belgilangan tartibda hisobotlarda aks etadi.

Islom banklarining mablag'larini joylashtirishdan olingan sof foydani aniqlashda bunday mablag'larni jalb qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni hisobga olish va chegirib tashlanadi (Haron, 2000). Bunga moliyalashtirish xarajatlari, shuningdek, shubhali qarzlarni uchun zaxiralar yoki moliyalashtirishning yo'qolishi kabi tegishli xarajatlar kiradi. Bundan tashqari, to'lov asosidagi daromad kabi moliyaviy bo'lmagan daromadlar kengash yoki qo'mita roziligi bilan Investitsiya hisobvarag'i egalariga taqsimlanadi.

Xulosa qilinsa, islom banklari ham, an'anaviy banklar ham, daromad olish maqsadida faoliyat yuritadi va o'z faoliyatlarini belgilangan ravishda hisobotlarda aks ettirishadi. Islom banklari o'zining barcha operatsiyalarida, investitsiya va moliyalashtirish faoliyatida islom iqtisodiyoti tamoyillariga amal qilishi shart. Islom buxgalteriya hisobida an'anaviy buxgalteriyada kabi turli manfaatdor tomonlar mavjud bo'lib, ular o'z investitsiyalariga nisbatan to'g'ri qaror qabul qilish uchun ma'lumot to'playdi va hisobotlarda aks ettiradi. Tashkilotlar kichik bo'lsa, manfaatdor tomonlar soni ham oz bo'ladi, shuning uchun hisobotlarda talab qilinadigan ma'lumotlar miqdori nisbatan kichik bo'ladi. Tashkilotlar hajmi oshgani sayin, manfaatdor tomonlar soni ortadi va hisobotlarga bo'lgan talab ham ortadi. Ijtimoiy javobgarlik va to'liq yoritish tamoyillari bunday tashkilotlardan yanada kengroq hisobotlarni taqdim etishni talab qiladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Aderemi, A. M. R., & Ishak, M. S. I. (2023). *Qard Hasan as a feasible Islamic financial instrument for crowdfunding: its potential and possible application for financing micro-enterprises in Malaysia. Qualitative Research in Financial Markets*, 15(1), 58-76.

Haron, S., & Ahmad, N. (2000). *The effects of conventional interest rates and rate of profit on funds deposited with Islamic banking system in Malaysia. International Journal of Islamic Financial Services*, 1(4), 1-7.

Kureshi, H., & Hayat, M. (2014). *Contracts and Deals in Islamic Finance: A Users Guide to Cash Flows, Balance Sheets, and Capital Structures*. John Wiley & Sons.

Mohammed, N. F., Mohd Fahmi, F., & Ahmad, A. E. (2019). *The need for Islamic accounting standards: the Malaysian Islamic financial institutions experience. Journal of Islamic Accounting and Business Research*, 10(1), 115-133.

Moharrampour M, Esfandiyari S, Asgarzadeh A. *Islamic Accounting, Applied mathematics in Engineering, Management and Technology*. 2014;2(3): p. 612-619.

Noor, S., Noor, S., & Ahmad, I. (2024). *Analysis of Accounting and Auditing Organization of Islamic Financial Institutions (AAOIFI) Shariah Standardization on Salam. Journal of Islamic Theology*, 6(1), 20-30.

Owoyemi, M. Y. (2020). *Zakat management: The crisis of confidence in zakat agencies and the legality of giving zakat directly to the poor. Journal of Islamic Accounting and Business Research*, 11(2), 498-510.

Suandi, A. B. (2017). *Classification of profit-sharing investment accounts: A survey of financial statements of Islamic banks in Asia. International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management*, 10(3), 351-370.

Sultana N. (2015). *Contribution of Islamic Accounting System to the Commercial Organizations, Banglavisian Research Journal*. 2015;15(1): p. 125-132.

Vatter, W. J. (1946). *The fund theory of accounting and its implications for financial reports (Doctoral dissertation, The University of Chicago)*.

Velayutham S. "Conventional" accounting vs "Islamic" accounting: the debate revisited, *Journal of Islamic Accounting and Business Research*. 2014;5(2): p. 126-141.

Банк, В. Р., Банк, С. В., & Тараскина, А. В. (2006). Финансовый анализ. М.: ТК Велби, Проспект.

Харисова, Ф. И., Юсупова, А. Р., & Харисов, И. К. (2018). Общая характеристика бухгалтерских стандартов для исламских финансовых учреждений. *Международный бухгалтерский учет*, 21(2 (440)), 138-148.